SCIENCE HUB REVIEW
2026
Volume 1
Issue 5
www.sciencehubreview.uz
ILMIY ELEKTRON JURNAL

POLISEMIYA VA OMONIMIYA: ULARNI FARQLASHNING LINGVISTIK MEZONLARI

Hayitova Dilnoza Xusanovna

O‘zbek filologiyasi va jurnalistika fakulteti, o‘zbek tili ta’lim yo‘nalishi 4-bosqich talabasi

dilnoza@2005gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada tilshunoslikda muhim o‘rin tutuvchi polisemiya va omonimiya hodisasining mazmun- mohiyati va o‘ziga xos xususiyatlari yoritiladi, ularning o‘xshash va farqli tomonlari, lingvistik farqlash mezonlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi hamda o‘zbek tilida uchraydigan bu hodisalarga misollar orqali izohlanadi.

Kalit so‘zlar

polisemiya , omonimiya, shakldoshlik, ko‘p ma’nolik , tilshunoslik, leksikologiya,semantika , lingvistik farqlash mezonlari, ko‘p ma’nolilik.

Abstract

This article explores the concepts of polysemy and homonymy, which are of significant importance in linguistics. It examines their meanings, specific characteristics, similarities, and differences, providing a scientific analysis of the linguistic differentiation criteria. Furthermore, the article explains these phenomena using examples from the Uzbek language.

Keywords

polysemy, homonymy, cognates, polysemy, linguistics, lexicology, semantics, linguistic differentiation criteria, polysemy.

Ma’lumki, til boyligi va uning ma’no ko‘lami faqat so‘zlar,iboralar bilangina emas,balki so‘zlarning leksik ma’nolari bilan ham o‘lchanadi. So‘zlarning ko‘p ma’noliligi- polisemiya til boyligida o‘z o‘rniga ega hisoblanadi. Polisemiya ma’lum bir so‘zning bir necha leksik ma’nolarga ega bo‘lishi hodisasi hisoblanib [1] yozilishi va

[1]. А. А. Р е ф о р м а т с к и й , Висдсние в язьпсознание М., 1960, стр. 52; 1967 йилги нашрида 75—76-бстлар;

gaplarda qo‘llanilishi bir xil, ammo tub ma’no saqlanib qolgan so‘zlardir. O‘zbek tilshunosligida polisemiya hodisasi Mizaziz Mirtojiyev tomonidan keng tadqiq etilgan bo‘lib ,uning fikriga ko‘ra polisemantik so‘zlarning strukturasi faqat leksik birliklar, leksik ma’nolar bilan o‘lchanadi. Boshqa ma’nolar esa polisemantik so‘zlarni vujudga keltira olmaydi. Ya’ni, bunda so‘zning lug‘aviy ma’nosida qayd etilgan ma’nolar uning barcha nutqiy imkoniyatlarini to‘liq qamrab olmasligi mumkin. Chunki, ma’lum bir so‘zning lug‘at tarkibiga qaraydigan bo‘lsak ,unga leksik ma’nosidan tashqari boshqa ma’no vazifalari qo‘shilib ketishi ham mumkin. Shu sababli, polisemantik birliklarni o‘rganishda faqat so‘zlarning konteksdagi ma’nosiga tayanmay , balki nutqiy vaziyatda qo‘llanish xuxusiyatlariga e’tibor qaratishimiz lozim. Misol uchun , “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” da “oltin” so‘zining leksik ma’nosi quyidagi ikki holatda izohlangan :

1.Mendeleyev davriy sestemasining I guruhiga mansub kimyoviy element;sariq-qizg‘ish tusli qimmatbaho metall,zar,tilla.*Sof oltin. Oltin soat.*

2.Shu metalldan zarb qilingan pul . *...oltinlarini sanab tushira berdi.(A.Qodriy)*

Shuningdek, oltin so‘zining boshqa leksik ma’nolari ham misollar orqali qayd etilgan .Masalan, *oltin damlar, oltin suv, oltin vodiy, oltin kuz,oltin bosh* kabi birikmalar ko‘chma ma’noda har qanday qimmatbaho yoki aziz narsa haqidagi ma’nolarni ifodalab keladi. Aynan mana shunday ma’no kasb etishi polisemiya hodisasiga kiradi.

Tilshunosligimizda polisemiyalarni yondosh hodisalar bilan qiyoslab o‘rganish va uning doirasini aniqlashda anchagina ishlar qilindi. Bu haqda yozilgan fransuz,nemis,ingliz, chex, rus va o‘zbek tilshunoslarining asarlarini ham ta’kidlab o‘tish joizdir. Polisemiyaga bag‘ishlangan ishlar maxsus monografiya yoki muhim maqolalar tarzida bo‘lmasa ham, tarkibida polisemiyalarini yondosh hodisalardan farqlovchi nozik belgilarni o‘z ichiga olgan qimmatli fikrlarga ega. Biroq mazkur asarlarda polisemiyalar ba’zi yondosh hodisalardangina farqlab berilgan. Shuningdek, ularda polisemiyaning omonimiyadan farqi va fraza tarkibidagi so‘z ma’nolari polisemantik so‘z strukturasi uchun aloqasiz ekanligi yoritib berilgan. Polisemiyalarga tilning ko‘pgina hodisalari qorishtirib yuboriladi. Polisemiya bilan chalkashlikni yuzaga keltiruvchi yondosh hodisalarga quyidagilarni kiritishimiz mumkin.

1)omonimiya 2)konversiya 3)fraza[2]

Xususan, omonimiya hodisasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, omonimiya- shakldosh so‘zlar,ya’ni shaklan bir xil, ma’no jihatdan har xil ma’nolarni anglatuvchi so‘zlar asosida yuzaga keluvchi hodisa hisoblanadi. O‘zbek tilshunosligida omomim so‘zlar Sh.Rahmatullayev va H.Jamolxonov tomonidan o‘rganilgan. Omonimlar leksik omonim va frazealogik omonim kabi turlarga ajratiladi.

Omonimiya hodisasi so‘z ichida sodir bo‘lsa,leksik omonim deyiladi. Masalan, *ko‘k*- 1)kashnich,ukrob,petrushka kabi o‘simlik;ovqatga ishlatiladigan ko‘kat; 2)osmon,falak,samo; 3)xorijiy valyuta {argo}; 4) havo rangli, moviy,zangori va h.k kabilar bir so‘z doirasida omonimlik hosil qilgan. Shuni ta’kidlab o‘tish joizki , Alisher Navoiy “Muhokamat ul-lug‘atayin” asarida yuqorida izohlangan ko‘k so‘zining olti xil omonimini keltirgan: ko‘k I *“osmon”,* ko‘k II *“kuy”,* ko‘k III *“ko‘klam”*,ko‘k VI*“qadoq”;*ko‘k V *“yashillik”*, ko‘k VI *“yalanglik”*.Undan ortiq ma’nolarda ham omonimlik hosil qilish mumkinligini aytgan.

Omonimiya hodisasi so‘z birikmasi doirasi sodir bo‘lsa , bu frazealogik omonim deb ataladi. Masalan, *bosh ko‘tarmoq*- qo‘zg‘alon ko‘tarmoq; *bosh ko‘tarmoq*- tuzalib sog‘lom hayot boshlamoq .Shuningdek ,omonimiya hodisasi qo‘shimcha(affiks) lar orqali ham yuz berishi mumkin.

Tilshunoslikda omonim so‘zlarni yuzaga keltiruvchi hodisalardan biri sifatida polisemiya hodisasi qayd etiladi. Lekin tilshunos olim B.E.Abaev :”Bu ikki hodisa ma’nolari o‘rtasida hech qanday yiroqlashish bo‘lmaydi. va omonimlarning polisemantik so‘zlardan kelib chiqishi uchun asos ham emas” degan fikrlarni bayon qiladi. Ba’zi bir tilshunos olimlar esa polisemantik so‘z taraqqiyoti natijasida omomimlar vujudga keladi deb ta’kidlaydilar. Lekin M.Mirtojiyev tadqiqotiga qaraydigan bo‘lsak, u polisemantik so‘z tarkibidagi ko‘chna ma’no tobelik yo‘li bilan hosil bo‘lgan bo‘lsa va u shunday konkretlikdan umumiylikka taraqqiy etib ketsa , asos va tobe ma’nolar o‘rtasidagi aloqa uziladi. Ya’ni polisemanantik so‘z ikki so‘zga differensiasiya bo‘lib, omonim vujudga

[2]Миртожиев Миразиз.Узбек тилида полисемия .Тошкент: Фан нашриёти.1984.

keladi .Kun, chaqirim,til kabi omonimlar ham xuddi shunday yo‘l bilan hosil bo‘lgan deya izohlaydi.

Demak, polisemantik so‘zning leksik ma’nolari o‘rtasidagi aloqalar uzilishi omonim so‘zlar vujudga kelishining birinchi hodisasi hisoblanadi.

Shuningdek,tilshunoslikda bu ikki hodisa- polisemiya va omonimiyaning farqlari uchraydi. Avvalo, polisemantik so‘z ya’ni ko‘p ma’nolilik va shakldoshlik o‘rtasidagi so‘z ma’nolariga e’tibor qiladigan bo‘lsak, polisemiyada ma’lum bir so‘z va u anglatgan ma’nolar o‘rtasida o‘zaro bog‘liklik mavjud bo‘ladi. Lekin omonimiyada so‘z va u anglatgan ma’nolar o‘rtasida hech qanday bog‘liqlik bo‘lmaydi. Misol uchun , “*Oltin* olma-duo ol, duo oltin emasmi ?” va “Yosh chog‘im- *oltin* chog‘im” maqolidagi *oltin* so‘zi ko‘p ma’noli so‘z tarkibiga kiradi. Chunki ikkala misolda ham qimmatli va bebaho ma’nosida ifodalangan, birinchi maqolda so‘z o‘z ma’nosida, ikkinchi maqolda esa ko‘chma ma’noda qo‘llanilgan. Odamning qulog‘i, qozonning qulog‘i, ariqning qulog‘i kabi so‘zlar ham shular jumlasidandir.

Omonimlarda esa bunday ma’no yaqinlik kuzatilmaydi. Masalan, birgina *olma* so‘zini tahlil qiladigan bo‘lsak, “olma” (meva-ot) va “olma” (olmoq-fe’l) o‘rtasida hech qanday ma’no bog‘liqligi kuzatilmaydi.

Tilshunoslikda polisemiya va omonimiyani ajratish uchun maxsus mezonlar ishlab chiqilgan. Bular:

1.Semantik mezon

2. Etimologik mezon.

3. So‘z yasash (derivatsiya) mezoni.

4. So‘z birikishi mezoni.

5. Uslubiy va chastotalik mezoni.

Semantik mezon. Bu mezonda so‘z semalari orasida ma’no bog‘lanishi tahlil qilinadi. Agar ma’nolar orasida aniq umumiy semantik komponent va o‘tish, oraliq ma’nolar bo‘lsa, bu polisemiyaga ishora qiladi; agar bog‘lanish butunlay yo‘qolgan va ma’nolar butunlay alohida sifatida qabul qilinsa, bu omonimiya deb hisoblanadi. Yuqorida ta’kidlangan oltin, qulog’ va olma so‘zlaridagi ma’no konsepsiyasini misol qilishimiz mumkin. Tilshunos olim L. Vaysgerber fikricha, "semantik mezon omonimlar va

polisemantik so‘z ma’nolarini farqlash masalasiga yechim kalitini beradi: fonetik jihatdan teng birliklar turli semantik maydonlarga tegishli bo‘lib, nutq aktining yo‘nalishida mustaqillik ko‘rsatsa, ular omonimlardir".

Etimologik (genetik) mezon. Bu mezonda agar shakli bir xil bo‘lgan so‘zlar turli kelib chiqishga ega bo‘lsa (turli ildizlar yoki turli tillardan olingan bo‘lsa), ular odatda omonim sifatida qaraladi. Tilshunos olim A. A. Neelov shuni qayd etadiki, "omonimlar ko‘pma’noli so‘zning ayrim ma’nolari bazasida, so‘z ma’nolar tizimi shunchalik shoxlanib ketganki, ikkinchi darajali hosila ma’nolar boshlang‘ich ma’nodan semantik uzilish sodir etadi va u to‘liq yoki qisman til tizimidan chiqib ketadi; natijada yangi semantik markazlar shakllanadi, shuning uchun birinchi darajali hosila ma’noning asosiy ma’nodan uzilishi hisobiga ikki yoki bir necha yangi so‘z vujudga keladi. Bu, nomlash jarayonida tovush kompleksining tanlanishi bugungi nuqtayi nazardan tasodifiy va nomlangan predmet uchun muhim bo‘lmagan belgi asosida sodir bo‘lganda yuz beradi (Neelov A.,1953]. " So‘z yasash (derivatsiya) mezoni. Bu mezonda har bir ma’no uchun hosila so‘zlar "uyasi" solishtiriladi. Agar bir shakldan hosil bo‘lgan hosila so‘zlar guruhi bir-biri bilan kesishmasa, bu omonimiyaga ishora qiladi. Masalan, "kul" so‘zi “harakat” ma’nosida kuldirmoq, kulgi, kulgich kabi so‘zlarni beradi; “narsa” ma’nosida esa kulli, kulsiz (sifat), kuldon (narsa-buyum) va hokazo umumiy hosilalar yo‘q. Bu hol omonimiyani bilvosita tasdiqlaydi. Agar esa barcha ma’nolar bitta asosli hosilalar beradigan bo‘lsa (masalan, yuzli, yuzsiz yuzaki), bu polisemiyadir. So‘z birikishi mezoni. Bu mezonda leksik va frazeologik bog‘lanishlarning farqi tahlil qilinadi. Polisemanik so‘zlarda ma’nolar ko‘pincha umumiy kontekstga ega bo‘ladi; omonimlar esa mutlaqo boshqa so‘zlar bilan birikadi. Masalan, ot so‘zi: “hayvon” ma’nosida yilqi, uyur, chavandoz kabi so‘zlar bilan, “harakat” ma’nosida to‘p, o‘q, qurol kabi so‘zlar bilan birikadi. Kesishish yo‘qligi omonimiyaga dalildir. Uslubiy va chastotalik mezoni. Bu mezonda polisemiya va omonimiyada agar ma’nolardan biri boshqa funksional uslubda qo‘llansa yoki tor kasbiy jargon bo‘lsa, tilshunos uni alohida omonim sifatida ajratishi mumkin. Biroq ko‘proq hollarda bunday holatlar belgilash (pometa) bilan bitta maqola doirasida beriladi. Yana, kam uchraydigan, maxsus ma’nolar til egalariga alohida so‘z sifatida qabul qilinishi mumkin, bu ham omonimiyaga sabab bo‘lishi mumkin. V. M.

Galkina-Fedoruk polisemantik va omonimik birliklarni ajratishda tahlil qilinayotgan birliklarga sinonimlarni qo‘yish usulini taklif etadi: agar ikki ma’noga tanlangan sinonimlar o‘zaro sinonimik munosabatga kirisha olmasa, demak, biz turli so‘zlar omonimlar bilan ish ko‘ryapmiz. Bitta so‘z ma’nolari esa umumiy sinonimlarga ega bo‘ladi. Bu usul semantik bog‘liqlikning bor-yo‘qligi tilda yaqqol ifodalanganda ayniqsa ish beradi.[3]

Xulosa qilib aytganda, polisemiya (ko‘p ma’nolilik) va omonimiya (shakldoshlik) tilning lug‘at tarkibini boyituvchi, biroq o‘zaro chambarchas bog‘liqligi sababli chegaralarini belgilash muayyan qiyinchiliklar tug‘diruvchi murakkab leksik-semantik hodisalar hisoblanadi. Ushbu ikki hodisani bir-biridan farqlashda faqatgina bitta yondashuv yetarli emasligi, balki lingvistik mezonlar majmuasiga tayanish zarur. Umuman olganda, polisemiya va omonimiyani ilmiy asosda farqlash nafaqat nazariy leksikologiya va semasiologiya uchun, balki amaliy leksikografiya (izohli va omonimlar lug‘atlarini tuzish), tarjimashunoslik hamda kompyuter lingvistikasi (matnlarni avtomatik tahlil qilish) sohalaridagi muammolarni hal etishda ham muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Миртожиев Миразиз. Узбек тилида полисемия .Тошкент: Фан нашриёти.1984.

2. А. А. Реформатский , Введение в языкознание М., 1960, стр. 52; 1967 йилги нашрида 75—76-бстлар.

3. Миртожиев Миразиз. Узбек тили семасиологияси.Тошкент:”Mumtoz so‘z” нашриёти.2010.

4. Sh.Rahmatullayev. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”.Toshkent.

5. 2-jild, 2-son (2025): O‘zbek tilini o‘qitish va tadqiq qilish https://conference.nuu.uz/index.php/home/issue/view

6. ”Узбек тилининг изохли лугати.” А. Мадвалиев таҳрири остида. "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" .Давлат илмий нашриёти.Тошкент

[3]5.2-jild, 2-son (2025): O‘zbek tilini o‘qitish va tadqiq qilishhttps://conference.nuu.uz/index.php/home/issue/view

7. Rahmatullayev Sh. O‘zbek omonimlarining izohli lug‘ati. – Toshkent:O‘qituvchi,1984.

8. Теша Аликулов, Яна кучма маънолар ҳақида, „Ўзбек тили ва адабиёти", 1974, 1-сон, 73-бет.

9. Weisgerber L. Die vier Stufen der Erforschung der Sprachen. Düsseldorf, 1963.

10.Алимов В. В. Специальный перевод и лингвистическая интерференция. Москва, 2003. - 134 с.

11.Борисова О. Г. Омонимия терминов медицинских наук: дис. канд. филол. наук. Краснодар, 168 с.